



O'g'iltinor RUZIYEVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: u.ruzieva2909@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor Q.Yo'ldoshev taqrizi asosida

BADIIY ADABIYOTDA SAYYOR OBRAZLAR TASNIFI: ILMYI TALQINLAR

Аннотация

Mazkur maqolada jahon va o'zbek adabiyotshunosligida sayyor obraz (ko'chib yuruvchi obraz) tushunchasining nazariy-estetik asoslari va ularning tadqiqi masalalari tahlilga tortilgan bo'lib, obrazlarning asarlararo migratsiyasi, ularning badiiy funksiyasi va transformatsiya jarayonlari turli ijodkorlarning repertuarlari, xususan, Luqmon Bo'rixon asarlaridagi ko'chuvchi obrazlar misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Sayyor obraz, badiiy funksiya, obrazlar migratsiyasi, transformatsiya, tadrijiy evolyutsiya, aylanma harakat, intertekstuallik, an'anaviy obrazlar, syujet ko'chishi, kontekstual bog'liqlik.

CLASSIFICATION OF WANDERING IMAGES IN FICTION: SCIENTIFIC INTERPRETATIONS

Annotation

This article analyzes the theoretical and aesthetic foundations of the concept of "recurring characters" (migratory characters) and their research issues in world and Uzbek literary studies. The study examines the intertextual migration of characters, their artistic functions, and transformation processes within the repertoires of various authors. In particular, the phenomenon of recurring characters is explored through the creative works of Luqmon Burikhon.

Key words: Recurring character, artistic function, character migration, transformation, gradual evolution, cyclical movement, intertextuality, traditional characters, plot migration, contextual dependence.

КЛАССИФИКАЦИЯ СТРАНСТВУЮЩИХ ОБРАЗОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируются теоретико-эстетические основы понятия «сквозной образ» (кочующий образ) и вопросы его исследования в мировом и узбекском литературоведении. Рассматриваются межтекстовая миграция образов, их художественная функция и процессы трансформации в репертуаре различных писателей. В частности, феномен кочующих образов исследуется на примере произведений Лукмона Бурихона.

Ключевые слова: Сквозной образ, художественная функция, миграция образов, трансформация, постепенная эволюция, циклическое движение, интертекстуальность, традиционные образы, миграция сюжета, контекстуальная зависимость.

Kirish. Obrazlar migratsiyasi adabiy hodisa sifatida shunchaki takrorlash emas, balki muallif badiiy olamining yaxlitligini ta'minlovchi murakkab estetik usuldir. Adabiyotshunoslik ilmida obrazlarning bir asardan boshqasiga ko'chishi, bir muallif ijodi doirasida yoki millatlararo adabiyot namunalari takrorlanishi tadqiqotchilar tomonidan turli rakursdan turib baholangan, turli terminlar bilan nomlangan. Jumladan, shvetsariyalik olim K.G.Yung (1875-1961) inson shuurida ajdodlardan siklik shaklda o'tadigan tushunchalar, qiyofalar mavjudligini va shu asosda turli xalqlar adabiyotida o'xshash yoki bir xil personajlar yaratilishiga sabab bo'lishini o'rganib bunday obrazlarni arxeotiplar deb nomlaydi. U o'zining "Arxeotiplar va jamoaviy g'ayrushuuriylik" nomli asarida insoniyat tafakkuridagi doimiy qiyofalar va ularning badiiy-psixologik o'ziga xosliklarini tadqiq etgan bo'lib, bu nazariyaga ko'ra, butun dunyo ahlining yer yuzida yashashi davomida chiqaradigan xulosalari adabiyotda mushtarak obraz sifatida namoyon bo'ladi, masalan, barcha xalqlar folkloridagi yovuz kampir yoki qutqaruvchi qahramon obrazlarining mavjudligi arxeotiplarga misoldir. Olim yozadi: "Har qanday sayyor obraz zamirida insoniyatning umumiy tajribasidan kelib chiqqan birlamchi obraz yotadi va bu boshqa obrazlar uchun andoza vazifasini bajaradi"[5].

Amerikalik olim J. Kempbell (1904-1987) esa migratsion xarakterdagi obrazlarning asarlararo harakatini monomif tushunchasi doirasida tadqiq etadi. Olimning

fikricha, dunyo xalqlari adabiyotidagi barcha qahramonlik dostonlari va epik asarlar yagona universal qolipga asoslangan bo'lib, u buni qahramonning safari deya baholaydi. Kempbell o'zining "Ming yuzli qahramon" ("The Hero with a Thousand Faces") nomli asarida yozadi: "Qahramonning chorlovni qabul qilishi, begona hududga maqsadli safari, zindon yoki choxda bandi bo'lishi, unga yordam beruvchi hamrohlarning mavjudligi yoki yangi bosqichda murod-maqsadiga yetishi barcha epik syujetlar uchun umumiy andozadir"[2]. Olim turli jug'rofiy hududlarda yashaydigan millatlar adabiyotidagi sayyor obrazlarning nomlanishi yoki portreti o'zgarasa-da, ularning boshidan kechiradigan sarguzashtlari, asardagi hayotiy missiyasi bir xil ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Masalan, doston va ertaklardagi, zamonaviy adabiyot namunalariidagi ijobiy yoki salbiy obrazlarning barchasi bir xil mifik arxeotipning turli davr va makondagi yuzlari, ya'ni ko'rinishlari hisoblanishini ilgari surgan.

Boshqa olimlardan farqli o'laroq, fransiyalik tadqiqotchi J. Jenett (1930-2018) obrazlarning ko'chib o'tishini "intertekstuallik" va "gipertekstuallik" tushunchalari doirasida tahlilga tortgan. U o'zining "Palimpsestlar: ikkinchi darajali adabiyot" ("Palimpsests: Literature in the Second Degree") asarida yozadi: "Sayyor obrazlar muayyan pretekst (dastlabki matn)ning keyingi gipertekst (hosila matn)dagi transformatsiyasidir [4]. Tadqiqotchi obrazlarning ko'chib o'tishini parodiya va taqlid usullari orqali yangi estetik

mazmun kasb etishi sifatida baholar ekan, bu jarayonga qayta kiyintirish deb izoh beradi. Bunday ilmiy qarash obrazlarning aylanma harakat jarayonida o'zining dastlabki mazmuniy qobig'ini saqlab qolgan holda, yangi badiiy yaratilgan umuman boshqa bir badiiy missiya bajarishini asoslaydi.

Kanada-Amerika adabiyotshunosi va tanqidchisi Nortrop Fray (1912-1991) o'zining "Tanqid anatomiyasi: to'rt maqola" nomli asarida tipologiya tushunchasiga katta urg'u bergan holda yozadi: "Keyingi davr adabiyotidagi obrazlar oldingi antik davr obrazlarining aks-sadosi yoki nusxasidir [3]. Fray nazariyasi prizmasidan qaraganda, sayyor obrazlar bitta ulkan makromatning juzvlaridir.

Rus adabiyotshunosi Aleksandr Veselovskiy (1838–1906) o'zining qiyosiy-tarixiy metodologiyasiga asoslangan "Tarixiy poetika" asarida sayyor obraz va motivlarni insoniyat badiiy tafakkurining mushtarak evolyutsion mahsuli sifatida talqin etadi. Olim murakkab syujetlarning xalqdan xalqqa o'tishini (migratsiyasini) shunchaki tasodifiy o'zlashtirish emas, balki qabul qiluvchi muhitdagi ijtimoiy-psixologik tayyorlik va tarixiy shart-sharoitlarning muvofiqligi bilan izohlaydi. U sodda motiv va murakkab syujet tushunchalarini farqlash orqali, sayyor obrazlarning genezisida qadimgi marosimlar va mifologik qatlamlar yotishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U yozadi: "Syujet - bu ko'chib yuruvchi, doimiy o'zgarib turuvchi, ammo o'zining sxematik asosini saqlab qoluvchi unsurlardir"[6].

Rus adabiyotshunosi Y. Lotman (1922-1993) esa obrazlar migratsiyasini turli madaniyatlarining xotira mexanizmi sifatida talqin etadi. Olimning nazariyasiga ko'ra, sayyor obrazlar madaniy makonlararo muloqotni ta'minlovchi invariant birliklardir. Lotman obrazning bir adabiy tizimdan ikkinchisiga o'tishini portlash nuqtasi deb ataydi: "Obraz begona muhitga kirganda, u o'zining avvalgi ma'nolarini saqlab qoladi, biroq qabul qiluvchi madaniyatning kodi bilan to'qnashib, yangi ma'no qatlamlarini hosil qiladi" [7]. Tadqiqotchi obrazlar ko'chishini ham estetik yondashuv, ham madaniyatlararo semantik ko'prik sifatida baholaydi. Bundan ko'rinadiki, olim millatlararo syujet va obraz ko'chishi hodisasiga alohida to'xtalgan, ammo muayyan muallif asarlariaro ko'chish hodisasiga e'tibor qaratmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Folklorshunos olimlar tomonidan syujet ko'chishlari o'rganilgan bo'lsa-da, yozma adabiyot doirasida sayyor obrazlar muammosi, ularni tasniflash masalalari o'z yechimini kutayotganligi bor gap. Ammo bu boradagi izlanishlar orasida adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlar masalasiga to'xtalganligi e'tiborga molik. Olim o'zining "Ijod iqlimi" asarida an'anaviy obrazlar hisoblangan Majnun, Xizr, Qalandar kabi personajlarning zamonaviy she'riyat va nasrdagi ruhiy migratsiyasi masalasiga to'xtalib, ularni tasavvufiy va falsafiy ildizlar doirasida tahlil qilgan. Olim bunday obrazlarni milliy ruhning asarlararo harakatlanuvchi timsollari sifatida baholab shunday yozadi: "Adabiy obraz - bu o'lik qolip emas, balki ijodkorning ruhiy tajribasi bilan qayta tiriladigan tirik mohiyatdir"[10]. Ammo Ibrohim Haqqul ham muayyan ijodkorning asarlaridagi obrazlar ko'chishini o'z tadqiqoti doirasiga kiritmagan. Ichki sayyor obrazlar an'anaviy obrazlar hisoblangan Xusrav, Iskandar, Majnun kabi obrazlardan farq qiladi, albatta. Bir muallif ijodi doirasida dinamik rivojlanishni boshidan kechirishi, yoki tipologik xususiyatini saqlab qolishi sayyor obrazlarning o'ziga xso jihati hisoblanadi. Tadqiqotchilarning aksariyati sayyor obrazlar tushunchasini, ya'ni takrorlanuvchanlikni umumiy model – universal andoza sifatida talqin qilishgan. Bugun muayyan bir muallif ijodi doirasida siklik aylanma harakat qiluvchi obrazlarni chuqurroq o'rganish ehtiyoji mavjud. Bu boradagi qilingan tadqiqotlarni atroflicha o'rganib aytish mumkinki, adabiyotshunoslikdagi migratsiya tushunchasi olimlar tomonidan ikki xil ma'noda ishlatilgan:

-Bir afsona yoki syujetning bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tishi.

-Arxetipal takrorlanish, ya'ni zamon va makon tanlamaydigan obrazlarning mavjudligi, bir-biri bilan aloqasi bo'lmagan xalqlarda ham o'z-o'zidan paydo bo'laverishi.

-Jahon adabiyoti namunalari ham o'zbek adabiyoti yaratilgan ham bir muallif ijodida sayyorlik xususiyatiga ega bo'lgan obrazlar talaygina, masalan, Amerika adabiyotining yirik vakili Vilyam Folknerning 1929-yilda yaratilgan "Shovqin va g'azab" ("The Sound and the Fury") romanidagi Kventin Kompson obrazi oilasining tanazzuli sababli ruhan charchagan, muammolardan qutulish yo'llarini izlayotgan talaba sifatida tasvirlanadi [9]. 1936-yilda yaratilgan "Absalom, "Absalom" romanida esa Kventin Kompson obrazi hikoyachi qahramon sifatida paydo bo'ladi. "Absalom, Absalom!" asarida o'qirman Kventinning ruhiyati, fikrlashi, dunyoqarashi bilan tanishsa, "Shovqin va g'azab" asarida uning chorasizligiga guvoh bo'ladi. Bundan tashqari, Flem Snoups obrazi ham Folkner ijodidagi sayyor obrazlardan biri bo'lib, u Folknering "Qishloq" (The Hamlet, 1940), "Shahar" (The Town, 1957) va "Qo'g'on" (The Mansion, 1959) trilogiyasida va bir necha hikoyalari bosh yoki epizodik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Folknering Vosh Jons (Wash Jones), General Kompson kabi obrazlari ham shunday ko'chuvchanlik xususiyatiga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Fransuz adabiyotining yirik vakili Emil Zolya ijodida ham sayyor obrazlar tizimi o'ta mukammal ishlangan. Masalan, uning 20 romandan iborat "Rugon-Makkarlar" turkumidagi Klod Lantye (Claude Lantier) obrazi muallifning bir necha asarlarida mavjud. Klod dastlab "Plassanning zabt etilishi" (1874) va "Parij qorni" ("Le Ventre de Paris"1873) romanlarida yosh rassom sifatida ko'rinib, 1886-yilda yozilgan "Ijod" romanida u old planga chiqadi va bosh obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, turkumning eng mashhur asarlaridan biri "Nana" (1880) romanidagi bosh qahramon — Anna (Nana) Kupper obrazi ham sayyor xarakterga ega bo'lib, u kitobxonga dastlab "Tuzoq" (L'Assommoir, 1877) romanida oddiy bir qizaloq sifatida tanishtiriladi. Zolya ijodidagi yana bir muhim sayyor obraz Ejen Rugon bo'lib, u "Rugonlarning yuksalishi" (1871) asarida paydo bo'lib, "Ejen Rugonning porloq davri" (1876) romanida bosh qahramon darajasiga ko'tariladi. Bundan ko'rinadiki, Emil Zolya asarlarida sayyor obrazlarning evolyutsiyasini kuzatish mumkin. Adib sayyor qahramonlarining xatti-harakatini ular mansub bo'lgan tashqi muhit belgilashini ko'rsatmoqchi bo'ladi va bunga erishganini kuzatamiz.

Obrazlarning sayyorligi muallifning shunchaki xohishi emas, balki adabiyotning ichki yaxlitligini ta'minlovchi elementdir. Obrazlar ko'chishi orqali adabiyot o'zining ildizlarini qayta tiklaydi. Bunday jihatlar sayyor obrazlarning tipologiyasini yaratish, ularni qiyosiy o'rganish, kompleks strukturaviy tadqiq etish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ko'chuvchi obrazlar o'zbek adabiyoti namunalari ham talaygina bo'lib, obrazlar ko'chishi haqida gap ketganda dastlab "Xamsa" dostonlarining qahramonlari Layli, Majnun, Xusrav, Shirin, Bahrom, Iskandar kabi obrazlar tasavvurda jonlanadi. Ammo bu obrazlar turli ijodkorlar dostonlari kesimida ko'chishi bilan namoyon bo'ladi va eng muhim jihati "Xamsa" yozish shartlari orasida dostonlarning aynan shu obrazlar haqida bo'lmog'i xususida ta'kid bor.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixon esa o'z asarlarida, janridan qat'i nazar, obrazlarni "sayr qildiradi" va shu jarayonda obrazlar sistemasini yaratadi. Adibning repertuarida o'ndan ortiq sayyor obrazlar mavjud bo'lib, bir necha asarlarda bo'y ko'rsatadi, masalan, Mulla Mirza, Qalqonov muallim, Samad, Husan, Ulash agranom kabi obrazlar ana shunday migratsion xarakterga egadir.

Yozuvchi Nurali Qobul (Nurali Xolbo'tayev) ijodida ham bir qancha migratsion obrazlar mavjudligiga duch kelish mumkin. Masalan, Shodmonqul aravakash obrazi "Do'stmurod bobo", "Ozod" hikoyalari hamda "Unutilgan sohillar" romanida uchraydi. Usta etikdo'z Hamza bobo obrazi "Umr sohillari", "Kechikkan turnalar" hikoyalari bosh planda tasvirlanadi. Yoki Rabbim cho'pon obrazi "Quduqqa qulon qulasa", "Tubsiz osmon" qissalarida, "Unutilgan sohillar" romanida, "Dala yo'li" hikoyalari ko'chib yurganini kuzatamiz.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rilganidek, jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyoti namunalari ham asarlararo ko'chuvchi obrazlarni qo'llagan mualliflar talaygina va bu obrazlarning xususiyatlari bir-biridan farqli, tasniflanishni, tadqiq qilinishni kutib turgan adabiy hodisalardan biri desak, yanglishmaymiz. Quyida sayyor obrazlarning o'ziga xos jihatlari, asardagi estetik belgilarini, funksional tabiatini Luqmon Bo'rixon asarlari asosida tahlilga tortamiz.

Luqmon Bo'rixon o'z asarlari uchun yaxlit bir jug'rofiy va ijtimoiy muhit yaratgan adibdir. U yaratgan asarlardagi voqealar deyarli bir xil hududda (Kengsoy qishlog'ida) bo'lib o'tadi. Adib intertekstuallik, ya'ni matnlararo bog'liqlik uslubidan foydalanib, bir asarda ikkinchi darajali bo'lgan obrazni keying asarda markaziy qahramonga aylantiradi.

Daxldorlik nuqtayi nazaridan asarlararo ko'chish ba'zi sayyor obrazlar yadrosining o'zgarishini ko'rsatib turadi. Masalan, Luqmon Bo'rixonning Ulash agronomi qaysi asarda namoyon bo'lsa ham biroz do'lvorligi, soddaligi, shoirlikni da'vo qilishi kabi xarakterlarini o'zi bilan birga ko'chiradi, olib o'tadi. Bu holat "Jaziramadagi odamlar" romanida ham, "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday xususiyatga ega obrazlar uchun tipologik barqaror sayyor obrazlar yoki ma'naviy barqaror sayyor obrazlar atamasini ishlatish o'rinlidir. Bunday obrazlar ma'lum bir ijtimoiy qatlamning yoki ma'naviy holatning barqaror vakili (tipi) sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bunday obrazlar asardan asarga ko'chganda o'zining ma'naviy qiyofasini (xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin) saqlab qoladi, masalan, ziyoli, uddaburon tadbirkor, pionista, soddadil kabi.

Ammo shunday sayyor obrazlar borki, migratsiya jarayonida uning dominantligi – ustuvorligi o'zgaradi, ya'ni obrazning jamiyatdagi o'rni, yoshi o'zgartirish holatida

namoyon bo'ladi. Masalan, Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanidagi Samadning beshinchi sinfda o'qib yurgan bolalik davri, so'ngra o'smirlilik davri, qisman talabalik davri tasvirlangan bo'lsa (bu asarda Samad hikoyachi qahramon edi), "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasida oilali, ikki bolaning otasi, butun respublikada, hatto Yevropada taniqli ruhshunos olim sifatida tasvirlanadi. Buning ustiga muallif bu obrazning o'sha romandagi Samad ekanligini hikoyaning bir o'rnida ta'kidlab ham o'tadi: "O'z ma'ruzalari bilan ahli Ovrupani bir qur angraytirib tashlab Parijdan qaytgan ruhshunos olim janob Do'lanov olqish-u tahsinlarga ko'milib ketdi. Turq-tarovati gazeta sahifalari-yu, teleekranlardan nari ketmay qoldi... Janob Do'lanov deganlari o'sha ma'lum-u mashhur cho'l qo'ynidagi 41-posyolkada tug'ilib o'sgan o'zimizning Samad, Do'lanov Samad Ergash o'g'li" [1]. Mutloq boshqa bir ijtimoiy muhitda harakatlanayotgan bunday sayyor obrazlarning ko'chish jarayonidagi takomillashuvini muallifning ham estetik subyekt evolyutsiyasi deb baholash mumkin. Bu kabi obrazlarga ko'chish jarayonida transformatsiyaga – ma'lum ma'noda o'zgarishga uchragan, ammo statik xususiyatini saqlab qolgan obraz sifatida baho berish mumkin. Bunday obrazlar uchun transformatsion xarakterdagi sayyor obrazlar atamasini ishlatish o'rinli. Ular o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, bir asardan boshqasiga ko'chganda yangi ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda namoyon bo'ladi: yoshining ulg'ayishi, ijtimoiy pozitsiyasining tadjiryan rivojlanishi, ma'nau o'sishi kabi holatlar. Misol uchun, bir asarda yosh bola sifatida tasvirlangan obraz, keying asarda yetuk mutaxassis yoki talaba sifatida o'qirman ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Sayyor obrazlarning yana shunday turi borki, ular asardan asarga o'z kasbi bilan birga ko'chadi. Bunday obrazlar asar syujetidagi epizodlarga reallik hissini singdirish funksiyasini bajaradi. Ularga misol qilib Luqmon Bo'rixon asarlaridagi Qalqonov muallim, mulla Mirza, Shunqor Hobil (jurnalist, yozuvchi), Safarmurod chavandoz, Ulash agronom kabi obrazlarni kiritishimiz mumkin. Bu kabi sayyor obrazlarga nisbatan kasbiy barqaror sayyor obrazlar atamasini ishlatish o'rinli deb hisoblaymiz. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, sayyor obrazlar o'zining funksional tabiatiga ko'ra xillanadi. Buni quyidagi jadvalda yaqqolroq ko'rishimiz mumkin:

Sayyor obrazlarning funksional-tipologik tasnifi (Luqmon Bo'rixon asarlari misolida)		
Sayyor obraz turi	Asosiy xususiyati va badiiy funksiyasi	Misollar (Obrazlar)
Tipologik barqaror sayyor obrazlar (Ma'naviy barqaror)	Asardan asarga ko'chganda o'zining ma'naviy qiyofasini, xarakter yadrosini (do'lvorlik, soddalik, uddaburonlik va h.k.) saqlab qoladi. Muayyan ijtimoiy qatlamning doimiy vakili sifatida namoyon bo'ladi.	Ulash agronom, Safarmurod chavandoz, Umrzoqov O'roq.
Transformatsion xarakterdagi sayyor obrazlar	Migratsiya jarayonida obrazi takomillashadi, yoshi ulg'ayadi va ijtimoiy pozitsiyasi o'zgaradi. Yangi ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda, ma'naviy o'sish holatida namoyon bo'ladi	Samad Do'lanov, Qorjov, Husan, To'lqin...
Kasbiy barqaror sayyor obrazlar	Asardan asarga o'z kasbi va ijtimoiy vazifasi bilan birga ko'chadi. Syujetdagi epizodlarga reallik va hayotiylik hissini singdirish funksiyasini bajaradi.	Qalqonov muallim, Mulla Mirza, Shunqor Hobil (jurnalist, yozuvchi), Ulash agronom...

Jadvaldan ko'rinadiki, Luqmon Bo'rixon prozasida sayyor obrazlar shunchaki takrorlanmaydi, balki estetik subyekt evolyutsiyasini ko'rsatib beruvchi vosita vazifasini o'taydi. Ayniqsa, Ulash agronom ham kasbiy, ham tipologik barqarorlikni o'zida birlashtirsa, Samad, Qorjov, Husan, To'lqin obrazlari transformatsion rivojlanishning yorqin namunasi. Bu esa yozuvchi mahoratining individual xususiyatlarini belgilab beradi.

Nima uchun muallifga yoki obrazga bitta asardagi tasvir yetarli emas? Bir muallif asarlari ichida obrazlar ko'chishining ilmiy sabablari, maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Katta vaqt oralig'idagi jamiyat holatini batafsilroq yaratish, o'qirmanga bo'rttiribroq taqdim qilish.
2. Yaxlit holdagi xususiy obrazlar kolleksiyasini yaratish va muallif sifatida ulardan ijod jarayonida doimiy foydalanish.
3. O'qirmanlar bilan muloqotni yo'lga qo'yish, ya'ni takrorlanuvchi obrazlarning kitobxonlarga yangi asar uchun yo'llanma taqdim qilishiga erishish.
4. O'qirmanda real hayot tasavvurini uyg'otish, badiiyat dunyosiga realistlik ruh bag'ishlash.

5. Kontekstual bog'liqlikni ta'minlash, bu maqsad, asosan, dilogiya, trilogiya, tetralogiya kabi roman shakllarini yaratishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

6. Jamiyatning turli bosqichlarida, sharoitlarida muayyan obrazning psixik holati, darajama-daraja o'sishi yoki inqirozini batafsilroq ko'rsatish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sayyor obraz tushunchasi asarning estetik quvvatini oshiruvchi,

muallif g'oyalarining davomiyligini ta'minlovchi, asarga reallik bag'ishlovchi mexanizmdir. Bunday obrazlar yordamida badiiy dunyo bir butun holda ko'rinadi, muallifning shaxsiy obrazlar kolleksiyasi shakllanadi, inson xarakterining turli ijtimoiy sharoitlardagi tadrijiy o'zgarishlari kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bo'rixon, L. Quyosh hali botmagan. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2015. – 288 b.
2. Campbell, J. The Hero with a Thousand Faces. 2nd ed. – Princeton: Princeton University Press, 1968. – Pp. 23–45.
3. Frye, N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – Pp. 158–239.
4. Genette, G. Palimpsests: Literature in the Second Degree. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – Pp. 5-15.
5. Jung, C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. Translated by R. F. C. Hull, 2nd ed. – Princeton: Princeton University Press, 1969. – Pp. 3–42.
6. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 301.
7. Лотман Ю. М. Семиосфера. – С.-Петербург: Искусство-СПБ, 2000. – С. 158-164.
8. Фолкнер У. Авессалом, Авессалом!: Роман / Пер. с англ. М. Беккер. – М.: Художественная литература, 1980. –414 с.
9. Фолкнер У. Шум и ярость: Роман / Пер. с англ. О. Сороки. – М.: Прогресс, 1973. – С. 429.
10. Ҳаққул И. Ижод иқлими. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 42-56.